

UDK: 619: 636.2: 576.89: 616.9

SAMARQAND VILOYATI SHAROITDA QORAMOLLAR MONIEZIOZNING EPIZOTOLOGIYASI

Muhammadiyeva Shaxnoza Xursandovna - assistant

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

e-mail: muhhammadiyevash87@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqlolada Samarqand shaxarda joylashgan ikkita qushxona "Zamonaviy chorva mollarini so'yish qushxonasi" da va MChJ "SAM TERI TAYORLOV" larda 692 bosh go'sht uchun so'yilgan qoramollarning "Ayrim organ va to'qimalarni to'liq gelmintologik yorib ko'rish usulidan" tekshrish natijalari keltrilgan. Topilgan sestodlar va ularning etilgan bo'g'inlarini muhum anatomo-morfologik jihatlarini o'rganish natijasida olingan ilmiy ma'lumotlar ushbu masalaga oid adabiyot ma'lumotlari bilan qiyosiy tarizda tahlil qilindi. Maxsus kuzatishlar orqali Samarqand violyatida sharoitda qoramollar monieziozning epizootologik axamiyati to'g'risida tegishli ma'lumotlar keltrilgan. Chunki ushbu qushxonalarga Samarqand viloyatining barcha xududlaridan qoramollar keltrilib so'yladi.

Key words: *Qoramol moniezioz, anoplotsephalyatozlar, Moniezia expansa, M.benedeni, sestod, skoleks, strobila, bo'g'in.*

ABSTRACT

In the article, two aviaries in the city of Samarkand, "Modern Livestock Slaughterhouse" and LLC "SAM TERI TAYORLOV", 692 heads of cattle slaughtered for meat "Separate organs and direct netting" check from direct helminthological examination. required. The scientific data obtained as a result of the important-morphological study of the found joints are described with the information related to this issue. Relevant information about the epizootological importance of cattle moniesiosis in the conditions of the Samarkand region through special security measures. Because cattle from all regions of Samarkand region were brought to these aviaries and slaughtered.

Key words: *Cattle monieziosis, anoplocephalatoses, Moniezia expansa, M.benedeni, cestode, scolex, strobila, joint.*

Kirish. Bugungi kunda qoramolchilik chorvachilikning asosiy sohalaridan biri, aholini go'sht, sut, sut mahsulotlari hamda yengil sanoatni teri va boshqa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Qoramollarning o'sish va rivojlanishga maxsuldarligining pasayishga olib keluvchi asosiy sabablaridan biri parazitar kasalliklardan Anoplocephalidae oilasga kruvchi moniezioz kasalligi hisoblanadi hisoblanadi.

Uning qo'zg'atuvchilarining sistematika bo'yicha quydagicha joylashgan *Cestoda Rudolphi*, 1808 sinfining *Cyclophyllidae Beneden in Braun*, 1900 turkumiga, uning *Anoplocephalata Skrjabin*, 1933 kenja turkumining *Anoplocephalidae Chladkowsky*, 1902 oilasi *Moniezia* avlodiga kiruvchi *Moniezia expansa*, *Moniezia benedeni*, *Moniezia autumnalia* hamda *Avitellinidae* oilasi, u esa quyidagi avlod va turlarga bo'linadi: *Thysaniezia* avlodining, *T. giardi* turi, *Avitelina* avlodining *A. centripunctata* turi va *Stilesia* avlodining *S.globipunctata* kiradi. Voyaga etgan anoplotsephalyatozlar tana uzunligi 1-2 m dan 10 m gacha bo'lishi aniqlangan. Ular chaqiradigan kasallik o'tkir, surunkali va aralash oqimlarda kechadi. Anoplotsephalyatoz yosh hayvonlar uchun juda xavfli hisoblanadi xattoki o'limga ham olib keladi. [1]

Ushbu maqolada esa nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, mavjud masalani qoramollarning monieziozlarni o'rganishni lozim topdik.

Adabiyotlar taxlili va metodologiyasi. Moniezioz kavshovchi hayvonlarning o'tkir va surunkali oqimda kechuvchi sestodoz kasalligining biri bo'lib, uni *Moniezia* avlodiga mansub qo'zg'atuvchilarni kavshovchi hayvonlarning ingichka bo'lim ichaklarida parazitlik qilishi tufayli qo'zg'atilib, kasallik xolsizlanish, hazm organ faoliyatining buzilishi, kuchli ich ketish, ayrim xollarda nerv sistemasining izdan chiqishi, o'sish-rivojlanishdan orqada qolishi, mahsuldarlikni keskin kamayishi va yosh hayvonlarni nobud bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Qo'zg'atuvchilarining morfologik tuzilishi. *Moniezia expansa* – bu oq-sut rangidagi sestod bo'lib, uzunligi 10 m gacha, eni .sa 1,6 sm gacha, ko'proq 6-oylikgacha bo'lgan hayvonlarda parazitlik qilishga moslashgan.

M. benedeni - bu oq-sarg'ich tusdag'i sestoda bo'lib, uzunligi 4 m gacha, eni esa 2,6 sm gacha, 6-oylikdan katta bo'lgan hayvonlarda parazitlik qiladi.

M.autumnalia - bu ham oq-sarg'ich tusdag'i sestoda bo'lib, uzunligi 3 metrgacha, eni esa 8 mm ga teng.

Parazit tanasi differensial ahamiyatga ega 3 qismdan iborat:

1. Skoleksi (boshchasi) – yumaloq-ovalsimon shaklda bo'lib, to'rtta muskulli surg'ich bilan ta'minlangan, xartumida xitinli ilmoqchalari yo'q, ya'ni qurollanmagan.

2. Germafrodit bo'gin – shakli to'rtburchak bo'lib, eni uzunligiga qaraganda ancha katta, ya'ni oldingi sestodlarga qaraganda teskari ko'rinishda. Germafrodit bo'g'inda jinsiy bezlar ikki komplektli, shu sababli bo'g'inning ikki yon tomonidan

bittadan ikkita jinsiy so‘rg‘ich (teshik) ochiladi. Urug‘donlarning soni 150-327 ta bo‘lib, yoyilib joylashgan.

Moniezia expansa va M. benedenilarni germafrodit bo‘g‘inlarining o‘zaro farqi ularning bo‘g‘inlararo joylashgan bezlariga bog‘liq. M.expanza-da bo‘g‘inlararo bez halqasimon, yumaloq shaklda bo‘lib, ikki bo‘g‘in orasini to‘ldirib turadi, M.benedeni- da esa bunday bezlar lentasimon shaklda bo‘lib, bo‘g‘inning o‘rtasida joylashgan, ikki tomonida bo‘sh joylari mavjud.

3. Etilgan bo‘g‘in – unda faqat bachadon qolgan bo‘lib, parazit tuxumlari bilan to‘lgan, Parazit tuxumlari 3, 4, 5, 6-burchak shaklida, onkosferasi esa noksimon (konussimon) apparatga o‘ralgan bo‘adi.

Qo‘zg‘atuvchilarining rivojlanishi. Parazit biogelmint, asosiy xo‘jayinlari - kavshovchi hayvonlar, asosan qo‘y, echki va qoramol, ba’zan esa boshqa kavshovchi hayvonlar, oraliq xo‘jayinlari esa oribatid (tuproq) kanalari. Prepatent rivojlanish muddati Moniezia expansa uchun -38-40 kun va Moniezia benedeni uchun - 42-49 kun., buzoqlar uchun 47-50 kun. Parazitlik qilish davri 2-7 oyni tashkil qiladi.

Diagnoz va differensial diagnoz. Diagnoz kompleks usulda qo‘yiladi: Hayvon tiriklik paytida epizootologik ma’lumotlar inobatga olinib, kasallikning klinik belgilariga va laboratorik tekshirish natijalariga asoslanib qo‘yiladi. Laboratorik tekshiruvlardan: gelmintoskopiya va gelmintoovoskopiya usullaridan foydalilanadi.

Bundan tashqari, diagnostik ravishda gelmintsizlantirish o‘tkaziladi. Buning uchun hayvonlar yaylovga chiqarilgandan so‘ng 14-16 kun o‘tgach otardan 50 bosh qo‘zilar (yoki 50 bosh buzoqlar) ajratib olinib gelmintsizlantiriladi va agarda, monieziyalar topilsa, otardagi qolgan barcha hayvonlar gelmintsizlantiriladi.

Hayvon o‘lgandan so‘ng yoki majburan so‘yilganida patanatomik o‘zgarishlariga va parazitlarni topish asosida qo‘yiladi.

Moniezioz kasalligini hayvonlarning senuroz, tizaniezioz, avitellinoz, stilezioz, ichak strongilyatozlari, kolibakterioz, oddiy dispepsiya kasalliklaridan farq qila olishimiz kerak. [3]

Qoramol moniezining mavsumiy va yosh dinamikasi. Moskva viloyatida sut va go‘shtli qoramollar yirik sanoat chorvachilik komplekslari, turli qo‘shma va kooperativ fermer xo‘jaliklari, shuningdek, kichik dehqon va fermer xo‘jaliklarida etishtiriladi. 400 bosh 1-2-3-4-5-6-7-8-9-10-11-12 oylik va 1,5-2-3-4-56-7 yoshli 400 bosh qoramolning oshqozon-ichak yo‘llarining gelmintologik tekshiruvida. eski, biz 1286 namunani ajratib oldik. cestodlar, shundan 1273 nusxa. Moniezia autumnalia turlariga, 14 ta namunaga tegishli edi. - M.benedeni. Sestodlar bilan o‘z-o‘zidan zararlangan qoramollarning ichaklarida M. expansa yo‘q edi.

Noyabr-dekabr va yanvar-may oylarida hayvonlarning barcha yosh guruhlari M.autumnalia dan tozalanadi. Iyun oyida hayvonlar AI = 1-8 nusxada 18,5% bilan

kasallangan. 0,75-50% tebranishlar bilan, iyulda - mos ravishda 38,5% va 1-12 nusxada. 4,5-100% tebranishlar bilan, avgustda - 40,5%, 1-12 nusxa. va 3,5-100%, sentyabr-oktyabr -36,5%, 1-10 nusxa. va 2,5-100%. Eng yuqori EI va II 712 oylik yosh hayvonlarda, o‘rtacha - 5-6 oylik va 1,5-2 yoshli hayvonlarda, eng pasti - ikki yoshdan katta hayvonlarda kuzatiladi. *M.autumnalia* 1-4 oylik buzoqlarda boqilmagani uchun uchramaydi.

Moniezia benedeni turi 1-4 oylik va 9-12 oylik buzoqlarda, shuningdek, sigir va g‘unajinlarda yo‘q. Biz bu turni faqat iyul-avgust oylarida 5-6 oylik buzoqlarning ichaklaridan (0,5% va 1-2 ta) va iyul-avgustda 7-8 oylik hayvonlardan ajratib oldik.

M.V.Kuznetsov Moskva viloyati sharoitida qoramollar (*Bos taurus*) ni ko‘proq *M.autumnalia* bilan, ayrim hollarda *M.benedeni* bilan zararlanishini, *M.expansani* esa ushbu tur hayvonda voyaga etmasligini ko‘rsatib o‘tgan. Shu bilan birga *M.benedeni* qoramollarga kam miqdorda yuqishi bilan uning voyaga etganlarida jinsiy mahsulotni past darajada bo‘lishini ham muallif qayd qilib o‘tgan. [2]

Natijalar. Tadqiqot materiallari va uslublari sifatida Samarqand shaxarda joylashgan ikkita qushxona “Zamonaviy chorva mollarini so‘yish qushxonasi” da va MChJ “SAM TERI TAYORLOV” larda 692 bosh go‘sht uchun so‘yilgan qoramollarning ingichka ichak bo‘limlari, “Ayrim organ va to‘qimalarni to‘liq gelmintologik yorib ko‘rish usulidan” foydalanildi. Topilgan sestodlar va ularning etilgan bo‘g‘inlarini muhum anatomo-morfologik jihatlarini o‘rganish natijasida olingan ilmiy ma’lumotlar ushbu masalaga oid adabiyot ma’lumotlari bilan qiyosiy tarizda tahlil qilindi. Maxsus kuzatishlar orqali Samarqand violyatida sharoitda qoramollar monieziozning epizootologik axamiyati to‘g‘risida tegishli ma’lumotlar olindi.

Muhokama. Olib borilgan maxsus tadqiqotlar va kuzatish natijasida monieziozilar nafaqat qo‘ylar, echkilar uchun, balki qoramollar uchun ham xavfli kasallik ekanligini kuzatdik. Monieziozlar bilan intensiv xolda zararlangan hayvonlar suruvdan orqada qola boshlaydi, ishtaxasi pasayib, keyinchalik u tomoman yo‘qoladi. Biroz vaqt o‘tar - o‘tmasdan ular keskin bezovtalana boshlaydi, oyoqlari bilan erni tepib, boshini chayqab tipirchilab, tez –tez yotib turadi, shu orada ularning qorin qismi taranglashib, goxida ich ketib, birdan erga yiqiladi, oyoqlarini tipirchilatib, boshi bilan yerni ishqalab o‘lib qoladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra invaziya intensivligi asosan oktyabr- noyabr oylarida uchradi. Xattoki go‘sht uchun bo‘rdoqiga boqilayotgan semizlik darajasi yuqori bo‘lsada keskin ariqlash xolatlari xam aniqlandi.

1 - jadval


	<i>Tekshirilgan qoramollar soni</i>	<i>Monieziozga chalingan qoramollar</i>		<i>Moniezioz lar</i>		<i>Moniezia benedeni</i>		<i>Moniezia expansa</i>	
		II sonlarda	IE foyizada	II nusxa	IE foyizada	II nusxa	IE foyizada	II Nusxa	IE foyizada
“Zamonaviy chorva mollarini so‘yish qushxonasi”	602	12	2,0	18	90	10	50	8	40
MChJ “SAMTERI TAYORLOV”	90	2	2,3	2	10	2	10	-	-
Jami	692	14	2,0	20	100	12	60	8	40

Go‘sht uchun yoki majburiy so‘yilgan qoramollarni yorib ko‘rilganda, ularning ingichka ichagi tarang xolda gaz va monieziyalar bilan to‘lib qolgani, ular bir joyda to‘planib, ozuqa massasini o‘tkazmay turgani aniqlangandan so‘ng. Ichak to‘liq gelmintologik yorish yo‘li bilan tekshirilganda, har bir qoramollarning ichagida 1 nusxadan 3 nusxagacha sestodlarning parazitlik qilishini aniqladik. Ular ichakning ma’lum hududlarga joylashib, devorlarning kengaytrish, ichakdagi oziqning siljishini qiyinlashtrish, hatto ichakda kataral yallig‘lanish, kapristaz holatlarni ko‘rdik. Tekshirilgan qoramollardan 14 bosh qoramollarning ingichka ichagida 20 nusxa sestodlar topildi. Ularning 8 nusxasini *M.expansa*, 12 nusxasini *M.benedenilar* tashkil qildi.

So‘yilgan qoramollardan topilgan sestodlarning morfologik xususiyatlariga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, *M.benedeni* ning strobilasi uzunligi, 33 sm dan 445 sm gacha, u sutsimon, ayrim holda sarg‘ish tusda. Skoleksi mayda, diametri ayrim holda *M.expansa* nikidan ham maydaroq, ammo deyarli yumoloq shakilda, bo‘yinchasi juda qisqa, bo‘g‘inlanish bo‘yinchadan tezda boshlanadi, ular eniga birmoromda o‘sib, yetilgan bo‘g‘inlarining eni 20-24 mm gacha yetadi, ular birmuncha yumoloq tuzilgan. Jinsiy teshigi ikkita, ular *M.expansaniki* singari bo‘g‘ining ikki yon tomonida joylashgan. Bachadoni to‘rsimon, undagi cheksiz sonli tuxumlar, ichda onkosferali, noksimon apparatli tuxumlar ko‘pincha 4 qirrali, ayrim holda 5-6 qirrali bo‘lishi mumkin. Uning yetilishi *M.expansadan* ham sust kechadi.

Qoramollarda topilgan *M.expansa* ning morfologik xususiyatlariga qisqacha to‘xtalsak, ushbu sestodlarning strobilasi uzunligi 1 m 45 sm dan 3m 30 sm gacha, yetilgan bo‘g‘inlarining eni 8- 10 mm dan 14- 16 mm gacha. Skoleksi mayda hajimli, deyarli sharsimon shaklda, diametri 0,80 x 0,90 0, 90 -1,0 mm ga teng. Bo‘yinchasi juda qisqa, 4-5 mm dan oshmaydi. Undan shakillanayotgan bo‘g‘inlar bo‘yiga sust,

eniga tez va deyarli bir tekisda o'sa boshlaydi. Strobilasi birmuncha qalin tuzilgan, rangi oq – sutsimon. Bachadoni to'rsimon, undagi cheksiz sonli tuxumlar, asosan, uch qirrali, olti ilmoqchali onkosferasi noksimon apparatga ega. Jinsiy teshigi ikkita bo'lib bo'g'inlarining chap va o'ng tomonlarida joylashgan. Sestod sust etiladi, uning ko'pincha strobilasining 190,0-260,0 sm oralig'idagi bo'g'inlari yetilgan.



M.benedeni ning enilgan bo'g'inlari va tuhumlari

Kuzatishlar natijasda qo'y va echkilar singari qoramollarda ham *M.expansa* va *M.benedenilar* moniezioz qo'zg'atuvchilari bilan zararlanganini kuzatdik.

Xulosa. Anoplocephalidae oilasga kruvchi moniezioz qoramollar uchun xavfli sestodoz ekanligi, uni o'limga olib keluvchi o'tkir oqimda o'tishi xollari ham aniqlandi.

Go'sht uchun so'yilgan 692 bosh qoramollardan ya'ni bo'rdoqiga boqilayotgan oziqlantirishi yaxshi tashkil etilgan bo'sada 14 boshi monieziozga chalinganligi kuzatildi, qoramollarni monieziozlar bilan zararlanish darajasi 2,0 % ni tashkil qildi.

Qoramollar moniezioziga chalinishi, *Moniezia* avlodiga kiruvchi *Moniezia expansa* turiga nisbatan *Moniezia benedeni* bilan ko'proq chalinganilgini aniqladik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmonov I. Muhammadiyeva Sh.X., Tayloqov T.I., et al. QORAMOLLARNING ANOPOLOTSEFALYATOZLAR //AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 403-406.
2. Кузнецов М.И. Аноплоцефалятозы жвачных животных. // Автореф.док.дисс. Москва, 1967. -45 с
3. P.S.Haqberdiyev, Sh.X.Qurbanov. "Veterinariya parazitologiyasi fanidan amaliy va loboratoriya mashg‘ulotlari". Toshkent 2015.
4. Sh.X.Muhammadiyeva, T.I.Tayloqov Anapolotsfalyatozlarining qoramollar orasida tarqalishi // «Тенденции развития ветеринарной паразитологии на пространстве СНГ и других стран в начале XXI века» 2021 год 28-30 апрель 80-81 стр.
5. Sh.X.Muhammadiyeva, T.I.Tayloqov Mayda shoxli hayvonlarning gelmintozlariga yangi antgelmintiklarning ta’siri. “Veterinariya va chorvachilik sohasidagi yutuqlar, mavjud muammolar va ularning yechimi” mazusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Samarqand. 5-6 may 2021. –В. 218-220.
6. Тайлаков Т. И., Исмоилий М. РАСПРОСТРАНЕНИЕ МОНИЕЗИОЗА МЕЛКОГО РОГАТОГО СКОТА //СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК. – 2019. – С. 128-130.
7. Курбанов Ш. Х., Салимов Б. С. МОНИЕЗИОЗ ОВЕЦ И МЕРЫ ЕГО ПРОФИЛАКТИКИ //Современное состояние, традиции и инновационные технологии в развитии АПК. – 2018. – С. 119-124.
8. Салимов Б, Тайлаков Т, Курбанов Ш. НЕКОТОРЫЕ ДАННЫЕ О ВОЗБУДИТЕЛЯХ МОНИЕЗИОЗА ЖВАЧНЫХ ЖИВОТНЫХ. ББК 28.083 Т65 Ответственный редактор доктор биологических наук СО Мовсесян. 2016:148.
9. Салимов, Б. С., Ш. Х. Курбанов, and Т. И. Тайлаков. "Самаркандский сельскохозяйственный институт Аннотация. В статьи приведены материалы исследований авторов, которые свидетельствуют о том, что в условиях Узбекистана у *Ovis aries* и *Capra hircus* кроме *Ayitellina sepshirshinctata* (Rivolta, 1874) паразитируют также другие возбудители авителлиноза. Abstract. The followipgartiche mauntaups scientific researches made by publishers that." *International Cooperation* 4 (2017): 5.